

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

# O'ZBEKISTON

2024 Vol. 4

tsuull.uz  
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

# O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 4

[tsuull.uz](http://tsuull.uz)

[uzlc.tsuull.uz](http://uzlc.tsuull.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Nodir Jo'raqo'ziyev

**Mas'ul kotib:** Ozoda Tojiboyeva

### **Tahrir kengashi**

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ūlvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

### **Tahrir hay'ati**

|                                |                                    |
|--------------------------------|------------------------------------|
| Nazef Shahrani (AQSH)          | Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)     |
| Elizabethta Ragagnin (Italiya) | Timur Xo'jao'g'li (AQSH)           |
| Ahmadali Asqarov (O'zbekiston) | Tanju Seyhan (Turkiya)             |
| Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)    | Xisao Komatsu (Yaponiya)           |
| Akmal Nur (O'zbekiston)        | Alizoda Saidumar (Tojikiston)      |
| Akrom Habibullayev (AQSH)      | Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya) |
| Bahtiyar Aslan (Turkiya)       | Akmal Saidov (O'zbekiston)         |
| Emek Ūşenmez (Turkiya)         | Mark Toutant (Fransiya)            |

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov

**Deputy Editor in Chief:** Nodir Jurakuziev

**Executive secretary:** Ozoda Tajibaeva

### Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

### Editorial Committee

|                               |                                   |
|-------------------------------|-----------------------------------|
| Nazif Shahrani (USA)          | Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)     |
| Elisabetta Ragagnin (Italy)   | Timur Kozhaoglu (USA)             |
| Ahmadali Asqarov (Uzbekistan) | Tanju Seyhan (Turkey)             |
| Isa Habibbeyli (Azerbaijan)   | Hisao Komatsu (Japan)             |
| Akmal Nur (Uzbekistan)        | Alizoda Saidumar (Tajikistan)     |
| Akrom Habibullaev (USA)       | Nicholas Kontovas (Great Britain) |
| Bahtiyar Aslan (Turkey)       | Akmal Saidov (Uzbekistan)         |
| Emek Üşenmez (Turkey)         | Marc Toutant (France)             |

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.tsuull.uz

## MUNDARIJA

### Lingvistika

#### **Dilafruz Satimova**

O'zbek adabiyotida substandart leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi va ularning ingliz tiliga tarjimasi.....6

#### **Umida Mahmudova**

Raqamli texnologiyalar diskursi tarjimasida sun'iy intellekt ChatGPT va Google Translate tarjimon dasturlarining farqi.....23

#### **Zilola Tillabayeva**

Samarqand viloyati qarluq shevalariga doir leksemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.....37

### Adabiyotshunoslik

#### **Orzigul Hamroyeva**

Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligining tarkibiy tuzilishi.....49

#### **Alimuhtor Muhtorov**

Nizomiy Ganjaviy siymosining milliy o'zlikni anglashdagi roli.....63

#### **Vəzufə Xudiyeva**

Azərbaycanda mövcud bibliografik ehtiyatlar sisteminin inkişafı.....76

#### **Kishin Xajiboyev**

"Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani syujetida inson va tabiat konsepsiyasi ifodasi.....87

### Tarix. Manbashunoslik

#### **Kemal Yavuz Ataman**

Ikki yetakchi sahoba: Qusam bin Abbos va Abu Ayyub al-Ansoriy va ikki muhim shahar: Samarqand va Istanbul.....101

### Sotsiologiya. Psixologiya

#### **Komil Kalanov**

Diniy ramziy belgilar tizimining tarixiy va ijtimoiy-madaniy tavsifi.....120

## CONTENT

### Linguistics

#### **Dilafruz Satimova**

Linguoculturological Study of Substandard Lexical units in  
Uzbek Literature and their Translation into English.....6

#### **Umida Mahmudova**

The Difference Between Artificial Intelligence ChatGPT and Google  
Translate in the Discourse of Digital Technologies Translation.....23

#### **Zilola Tillabaeva**

Types of Lexemes in the Karluk Dialects of Samarkand Region  
According to their form and meaning.....37

### Literature

#### **Orzigul Hamroeva**

The Structure of Abdurahmon Sa'di's Textbook "Practical and  
Theoretical Literature Lessons" .....49

#### **Alimukhtor Mukhtarov**

The Role of Nizami Ganjavi's Image in Understanding National  
Identity.....63

#### **Vazufa Khudieva**

Development of the Existing Bibliographic Resources System in  
Azerbaijan.....76

#### **Kishin Khajiboev**

The Expression of the Concept of man and nature in the plot of the  
novel "The shore that lost its river" .....87

### History. Source studies

#### **Kemal Yavuz Ataman**

Two Pioneer Companions, Two Important Cities in the Conquest  
Qutham ibn Abbas & Abu Ayyub al-Ansari, Samarkand & Istanbul.....101

### Sociology. Psychology

#### **Komil Kalanov**

A Historical and Socio-Cultural Description of the System of  
Religious Symbols.....120

TARIX. MANBASHUNOSLIK  
HISTORY. SOURCE STUDIES

## **Ikki yetakchi sahoba: Qusam bin Abbos va Abu Ayyub al-Ansoriy va ikki muhim shahar: Samarqand va Istanbul**

Dr. Kemal Yavuz ATAMAN<sup>1</sup>

### **Abstrakt**

Islom dini sahobalarning sayohatlari va fath harakatlari bilan keng yoyilgan. Sahobalarning aksariyati Arabistondan tashqarida vafot etgani e'tiborga molikdir. O'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, yetakchi sahobalarning strategik va global fath harakatlarida o'rin olganliklari ko'rinadi. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.)ga yaqin bo'lgan yetakchi ikki sahoba va ular fath etishda qatnashgan ikki muhim shahar tarixning oqimini o'zgartirgan edi.

Qusam bin Abbos (r.a.) Payg'ambarimiz (s.a.s)ning amakilari hazrati Abbos (r.a.)ning o'g'li bo'lib, Rasulullohga juda yaqin bo'lgan. Muhojirlardan bo'lgan bu zot hazrati Ali (r.a.) davrida Makkada, keyin qisqa muddat Madinada voliylik qilgan va haj amirligi vazifasini o'tagan. Ummaviylar davrida Xuroson safariga qatnashib, Samarqand fathi asnosida shahid bo'lgan.

Abu Ayyub al-Ansoriy (r.a.) ansorlardan bo'lib, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning qarindoshlaridir. Payg'ambarimiz (s.a.v.) Madinaga hijrat qilganlarida u kishining xonadonida bir muddat mehmon bo'lib yashaganlar. Abu Ayyub Rasulullohning zamonida barcha g'azotlarga qatnashib, u zotga qo'riqchilik (tansoqchilik) ham qilgan. Chahoryorlarning davrida turli g'azotlarda qatnashgan, shulardan birida hazrati Ali (r.a.) u zotni Madinada vakil qilib qoldirgan. Abu Ayyub al-Ansoriy (r.a.) Istanbulni qamal qilish paytida vafot etadi.

Maqolada bu ikki sahoba – Payg'ambar alayhissalomga va chahoryorlarga yaqinliklari, hazrati Ali (r.a.) davridagi xizmatlari hamda ummaviylar paytidagi fath safarlariga ishtiroklari bilan mushtarak xususiyatlari yoritilgan. Samarqand va Istanbul shaharlari geostrategik,

<sup>1</sup> *Kemal Yavuz Ataman* – sotsiologiya fanlari doktori, Turkiya.

**E-pochta:** kyataman@superonline.com

**ORCID ID:** 0000-0003-1379-0606

**Iqtibos uchun:** Kemal Yavuz Ataman. 2024. "Ikki yetakchi sahoba: Qusam bin Abbos va Abu Ayyub al-Ansoriy va ikki muhim shahar: Samarqand va Istanbul". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 101 – 119.

geosiyosiy xususiyatlarga ega bo'lib, Islom madaniyati, musulmon-turk davlatlari jihatidan global o'sish va o'zgarishlarga yetakchilik qilgan shaharlar ekanligi ta'riflangan.

**Kalit so'zlar:** *Sahoba, fath, Istanbul, Samarqand, strategiya.*

## **Kirish**

Islom dini hazrati Payg'ambar Muhammad (s.a.s)ning va sahobalarning fath yurishlari, tablig' faoliyatlari bilan qisqa vaqtda keng mintaqalarga yoyilgan. Hazrati Abu Bakr (r.a.) xalifalik vazifasini ado etarkan, Rasulullohning yo'lidan yurib, g'azotlarni davom ettirgan [Cafer Açar 2017, 2043]. Bu fathlar boshqa xalifalar davrida ham davom etgan. Sahobalarning fath va tablig' strategiyalarida Qur'on va sunnat o'lchovlariga rioya qilish dastlabki xalifalar paytida yaqqol namoyon bo'lgan. Sosoniy va Vizantiya o'lkalarida qozonilgan g'alabalar, ummaviylar davrida turkiylar yashaydigan mintaqalarga qadar yetib borib, tarixning rivojini o'zgartirgan [Hatalmiş 2019, 425]. Turkiylar Islom dinini qabul qilgach, musulmon-turk davlatlari tarixda muhim o'rin egallay boshladilar. Ular hukmron bo'lgan o'lkalarda Islom madaniyati ancha rivojlanib, dunyoga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Sharq va G'arbda ikki shahar, ikki mintaqa diqqatga sazovordir. Movarounnahrda joylashgan Samarqand hamda asrlar mobaynida usmonlilarning poytaxti bo'lib kelgan Istanbul jahon tarixining eng muhim markazlaridan bo'lgan. Mazkur ikki shaharning fath etilishida qatnashib, shahid bo'lgan ikki sahobaning ramzi Islom tarixida muhim o'rin tutib kelgan. Qusam bin Abbos (r.a.) va Abu Ayyub al Ansoriy (r.a.) hazrati Payg'ambar (s.a.s.) ga yaqin sahobalardan bo'lib, ular Qur'on va sunnatga mahkam rioya qilishgan. Saodat asrida mas'uliyatli vazifalarni zimmalariga olishgan. Chunonchi, oddiy askar nafari sifatida janglarda ishtirok etib, boshqalarga namuna bo'lishgan. Ular dafn etilgan mintaqalar – Samarqand va Istanbul – turkiylarning musulmonlikda, hukmronlikda va Islomga katta xizmat ko'rsatilishida sabab bo'lgan [Hatalmiş 2019, 418], asrlar davomida Islom madaniyatining rivojlanishiga manba bo'lib kelgan tarixiy markazlardir. Bu ikki shahar orqali Islom dini atrofdagi o'lka va jamiyatlarga keng tarqalib, musulmon davlat va jamiyatlar taraqqiy topganlar. Bunda Istanbulning alohida o'rni bor, chunki u hazrati Muhammad (s.a.s.)ning bashorat mujdasiga erishgan.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak ayon bo'ladiki, sof, sodda, samimiy bo'lgan iymon ahlining xolis niyatlari ilohiy izzat-ikromlar bilan taqdirlangan. Sodiq sahobalar Payg'ambar (a.s.)

dan olgan ishoratlari bilan yer yuzining ko'plab nuqtalariga yetib borganlar. Ular Islomning globallashuvi, yoyilishi, tanilishi va e'tirof etilishida katta hissa qo'shganlar [Kasim Şulul 2020, 140]. Ular vafot etganlaridan keyin u joylar obodonlashtirilib, markaz holiga kelgan. Shu jihatdan ular Islomning dunyo miqyosida o'rnak oladigan eng muhim shaxsiyatlaridan hisoblanadi.

### **Fath doirasida tablig' va sahobai kirom:**

Islom insoniyatga kelgan oxirgi haq din, hazrati Muhammad (s.a.s.) esa so'nggi haq payg'ambardir. Islom insoniyatning saodati uchun nozil qilingan bo'lib, iymon keltirganlarning ushbu dinga e'tiqod qilib, unga muvofiq yashash, uni boshqalarga ham yetkazishlari kerak [Bünyamin 2021].

***“Ey Rasul! Rabbingdan sizga nozil qilingan narsani (to'liq) yetkazing (bildiring). Agar buni qilmasangiz, Uning risolatini (elchilikni) bajo keltirmagan bo'lursiz. Alloh sizni insonlardan saqlagaydir. Shubhasiz, Alloh kofirlar qavmini to'g'ri yo'lga erishtirmas”*** [Kur'ân-ı Kerîm Meâli 2019, 5/67].

Bu oyati karima tablig' borasida yetakchi manba hisoblanadi. Bundan tashqari, Rasululloh (s.a.v.) Vido xutbasida deydilarki:

*“Ey insonlar! Bilmayman, balki, bu sanadan keyin siz bilan bu yerda yana bir bor birga bo'lolmasman. Bugun so'zimni eshitib, yaxshilab tushunib yetganlarga Allohning rahmati bo'lsin! Ushbu so'zimni bu yerda bo'lganlar eshitmaganlarga yetkazsin. Balki yetkazilgan kishi bu yerda eshitgandan ko'ra yaxshiroq tushunar va itoat etar. Ey insonlar! Bilingki, Rabbingiz birdir, otangiz ham birdir! Barcha insonlar Odam (a.s.)dan tarqalgan, Odam esa tuproqdan yaratilgandir. Arabning arab bo'lmagandan, arab bo'lmaganning arabdan, oq tanlining qora tanlidan, qora tanlining oq tanlidan hyech qanday ustunligi yo'qdir. Alloh huzurida ustunlik faqat taqvo bilandir”* [Vedâ Hutbesi].

Payg'ambarimiz (s.a.s.)ning “Ey insonlar!” deb xitob qilishlari va *“Ushbu so'zimni bu yerdagilar kelmaganlarga yetkazsin. Balki yetkazilgan kishi bu yerda eshitgandan ko'ra yaxshiroq tushunar va itoat etar”*, ifodasi tablig'ning tamali, omonati va ishoratidir. Barcha insonlar u zotning ummati, zamon esa qiyomatga qadar uning zamonidir [Mahmud Es'ad Coşan 2021].

Rasululloh xutbaning oxirida: *“Ey insonlar! Ertaga sizlardan men haqimda so'raydilar, shunda nima deysizlar?”*, deganlarida sahobalar: *“Allohning risolatini bizga yetkazganingizga, vazifangizni bajarganingizga, nasihat qilganingizga guvohlik beramiz”* dedilar.

Shunda u zot (s.a.v.) ko'rsatkich barmoqlarini osmonga qaratdilar, keyin odamlarga qaratib: *"Ey Allohim, O'zing guvoh bo'!"*, deb uch marta takrorladilar. Shunday qilib tablig'ning mohiyati belgib qo'yildi.

Payg'ambar alayhissalom turli jamiyatlarning yo'l boshchilariga, qirol va sultonlarga elchilar jo'natganlar. Elchilar hanuz diplomatik kafolat bo'lmasligiga qaramay, qo'rqmasdan berilgan manzillarga yetib borganlar. Ba'zi joylarda bu da'vatdan ijobiy javob olishgan, ba'zi joylarda esa shahid bo'lishgan [Shulul 141]. Islomning tablig' maqsadlari va qoidalari orasida Alloh va Rasuliga iymon keltirishga chaqiriq bilan birga zulmni bartaraf etish, adolatni o'rnatish ham bor. Qur'oni karim yer yuzini obod va isloh etishni, fasod va zulmni ko'tarishni musulmonlarning zimmasiga yuklagan [Kulat 2001, 14]. Sosoniy qo'mondoni Rustanning huzuriga borgan elchilardan "Seni nima bu yoqqa keltirdi?", degan savoliga Rib'i Amir (r.a.) shunday javob beradi: "Alloh bizni insonlarni bandaga bandalik qilishdan qutqarib, Allohga bandalik qilish maqomiga yuksaltirish uchun yubordi..." [Akgun 2013, 28].

Chahoryorlar davrida fath va tablig' strategiyasi Qur'oni karim va Payg'ambar (s.a.v.) bildirgan tablig' ishoratlariga ko'ra tuzilgan. Hazrati Abu Bakr (r.a.) xalifa bo'lgach, bu ishoratga ko'ra fath harakatlarini boshlatgan. Albatta, buning turli sabablari bor edi [Azimli 2005, 180]. Hazrati Abu Bakr "ichki notinchliklar (g'alayon) bor ekan, nima uchun tashqi jang safarlariga chiqilyapti" deganlarga qarshi qattiq turib: "Yolg'iz o'zim qolsam ham, Rasulullohning amrini ado etaman", deb o'z qat'iyatini ko'rsatgan [Achar, 2043]. Hazrati Abu Bakr (r.a.) Suriya g'azotiga ketayotib Madina aholisiga xitob etarkan:

"Allohyer yuzidan kufri yo'q qilish uchun shon-sharafin-gizni g'azot bilan yuksaltirdi. Qo'l ostidagilarni zulm bilan boshqarayotgan vizantiyalik rumlarni itoatimiz ostiga olish uchun tayyorlaninglar!" deydi [Achar 2043]. Boshqa bir nutqida esa: "Allohning izni bilan hech kim g'azotni tark qilmaydi. Chunki uni tark etganlar - xor bo'lganlar", deya musulmonlarga tablig' faoliyatini tark etmasligini bayon etgan [Achar, 2046].

Sahobalarning ulug'laridan Abdulloh bin Mas'ud (r.a.): "Agar Abu Bakr bo'lmaganda edi, biz halok bo'lar edik. U bizni arab viloyatlariga safarga chiqish yo'lida birlashtirdi", degan [Achar, 2048].

Sahobalar g'azotda ishtirok etishni "Allohning dinini yoyish", ibodat, burch deb bilganlar. Sahobalarning ko'pi bu g'azotlardan unvon, mansab va maqom kutmay ko'ngilli bo'lib qatnashganlar. Ular

fath harakatlarini hazrati Payg‘ambar (s.a.v.)ga itoat va ergashish deb bilganlar. Yaxshilikka buyurish, yomonlikdan qaytarish – haq din uzra jo‘natilgan Payg‘ambarning yo‘li va sunnatidir. Yer yuzida Alloh uchun toat-ibodatga muvofiq tartib o‘rnatish mo‘minlarning vazifasidir. Hujum qilgan bosqinchilar, ahdlashuvlarni buzgan qavm va davlatlarga qarshi safarga chiqilgan. Hazrati Payg‘ambar Vizantiya va sosoniylarni fath etishga ko‘rsatma bergan edilar [Küçükaşçı 2021]. Mazlumni zolimdan, dunyoni zulm va fasoddan qutqarish musulmonlarning mas‘uliyatidadir. Shu bois sahobalar barobarlikni, adolatni, axloqiy tartibni ta‘minlash maqsadida g‘azotlar qilib, ko‘plab mintaqalarga yetib borganlar [Şulul, 141].

Bu borada sahobalarning eng muhim sifatlardan biri – namuna bo‘lishlari, kuch-qudrati, tajribasi, axloqi va salohiyatidir. Oldiga qo‘ygan g‘oyalari yo‘lida o‘z qadriyatlarini o‘zlashtirib, e‘tiqodlarini to‘liq yashaganlar hamda o‘rnak shaxsiyat sifatida insonlarning sevgisini, hurmat-e‘tiborini qozonganlar.

Hazrati Umar (r.a.) fath va tablig‘ faoliyatlarida vaqti-vaqti bilan maqsadga yo‘naltiruvchi tartib-tuzatishlar, yangilanishlar qilgan [Azimli 182]. Sosoniylarning ag‘darilishi, Vizantiyaning turli janglarda musulmonlarga yengilishi Islomning keng diyorlarga yoyilishiga zamin yaratdi [Azimli 183]. Hazrati Usmon (r.a.) davrida ham fathlar davom etgan, faqat ichki nizolar tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Hazrati Ali (r.a.) davrida esa fathlar bir muddat to‘xtab qolgan [Hatalmiş, 428]. Ummaviylar zamonida fath faoliyatlari keng hududlargacha yetib borib, davomiylik kasb etgan [Akyürek 2013, 87]. Mazkur davrda Qutayba bin Muslim, Umar bin Abdulaziz kabi tarixiy shaxsiyatlar Xuroson, Turkiston fathlari bilan turkiylarning Islomni qabul etishida juda ta‘sirli ishlar qilganlar [Akyürek, 106].

Qusam bin Abbos ummaviylar davrida Samarqand yurishida qatnashib, o‘sha yerda shahid bo‘lgan [Kurt 1999, 572]. Istanbulga qilingan fath safarlari ham ummaviylar davrida boshlangan va davom etgan. Chunonchi, Ayyub al Ansoriy ham bu g‘azotda shahid bo‘lgan [Ensari Kara 2010, 50].

Islomning yoyilishi va bardavomligi jihatidan dastlabki davrda birinchi avlod musulmonlar, sahoba va tobeinlar borgan mintaqalarda yashovchilarning ko‘pchiligi keng miqyosda Islomni qabul qilganlar [Sönmez 2011, 295]. Bugungi Islom jug‘rofiyasi-ning hududlari deyarli sahobalarning fath harakatlari bilan chizilgan.

Bu mintaqalardan tashqari yana ko‘plab fathlar Islom davlatlari tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa-da, hukmronlik

ostiga olingan o'lkalarning aholisini bir xil darajada musulmon bo'lishi ta'minlay olinmagan. Usmonli davlati uzoq vaqt Ovrupada hukmronlik qilganiga qaramay, aholining asosiy qismi Islomni qabul qilmagan [Sönmez, 295].

Sahobalarning eng muhim da'vat xususiyatlari – Payg'ambar (s.a.v.)ning tablig' xususiyatlarini o'zlashtirib, u zotga bog'lanishlaridir. **“(Ey Rasulim!) Insonlarni Rabbingiz yo'liga (diniga) hikmat bilan va go'zal nasihatlar bilan da'vat qiling. Ular bilan eng go'zal uslubda (sindirmay, g'azablantirmay) mujodala qiling”** [en-Nahl 16/125]. Dinda majburlash yo'q, lekin tashviq qilish bordir. Shirin til, rahm-shafqat, iffat, omonat kabi yuksak axloqiy tamoyillar bilan bezangan sahobalar haqqoniy ravishda tablig'ni ado etganlar. Ushbu o'lchovlar ayni paytda tablig'ning tamalidir [Karakuş 2020, 275].

### **Qusam bin Abbos bin Abdulmuttalib al Hoshimiy (r.a.) (vaf. h. 57/m. 676)**

Qusam bin Abbos – Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.s.)ning amakilari hazrati Abbos (r.a.)ning o'g'lidir. Onalari – Ummul Fazl Luboba bint Xoris al Hiloliyya (r.a.) bo'lib, hazrati Maymuna (r.a.) ning singlisi edi. U hazrati Hadicha (r.a.)ning yaqin dugonasi bo'lib, Hadicha onamizdan so'ng musulmonlikni qabul qilgan.

Qusam bin Abbos (r.a.) hazrati Husayn (r.a.) bilan emikdoshdir. Rasululloh (s.a.v.)ning otlarining egariga o'tirgani uchun “Ridfun nabiyy”, “Radifun nabiyy”, “Radifu Rasululloh”, “Ridfu Rasululloh”, “Murdifu” kabi unvonlar bilan mashhur bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, Qusam bin Abbos Payg'ambarimizga eng ko'p o'xshash bo'lgan sahobadir. Rasulullohni qabrga qo'yib, u zotga oxirgi tekkan va qabrdan eng oxiri chiqqan kishi bo'lib, hadis roviylaridandir. Hazrati Ali (r.a.) davrida Makkada va qisqa muddat Madinada voliy bo'lgan, haj amirligini qilgan, fatvolar bergan [Şulul, 169].

Go'zal axloq, odob, tavoze', fazilat va jo'mardligi bilan mashhurdir. Muoviya davrida Xuroson fathlariga qatnashgan [Şulul, 149]. Qarib qolganiga qaramay, Movarounnahr yurishiga askar sifatida qatnashib, nazokati, odobi va kamtarligi bilan qo'mondonning hurmat-e'tiborini qozongan. U o'ziga nisbatan alohida e'tibor kutmagan, g'animat mollari taqsimlanayotganda qo'mondonning amri bilan berilgan ortiqcha molni ham olmay, hamma qatori teng taqsimlanishini istagan. Samarqand fath qilinishi jarayonida shahar hali qo'lga kiritilmasdan avval 677-yil qurbon bayrami kuni shahid bo'lgan [Nadirhan Hasan 2013, 243]. Samarqandda Shohi Zinda

(tirik valiy) sifatida bilinib, qabri atrofida tarixiy, ko'rkam binolar, madrasalar barpo qilingan. Turkiston hududlarida, O'rta Osiyoda ma'naviy nufuzga egadir. Xalq hurmat-ehtirom bilan tilga olar, qabri doimo ziyoratchilarga to'ladir [Kurt, 565].

Hazrati Payg'ambar (s.a.v.)ga yaqinligi, Qur'on va sunnatga bog'liqligi tufayli Islomning yoyilishi va barqarorlashishida ta'siri bo'lgan. Turkiston xalqining ahli bayt, sayyidlarga bo'lgan hurmat-ehtiromi, bog'liqligi Qusam ibn Abbos siymosida yanada kuchaydi. Payg'ambar xonadoniga oidlik va mansublik tuyg'usi uning soyasida chuqur ildiz otdi. Turli davrlarda sulton va beklarning diqqat markazida bo'lgan. Masalan, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek ko'rkam bir maqbara qurdirishgan, Boburiylar asoschisi Boburshoh esa uning qabriga Mozorshoh nomini bergan. Buyuk saljuqiy sultoni Sulton Sanjar qabrining atrofiga Qusamiyya madrasasini qurdirgan [Hasan, 244]. Qabrining atrofiga temuriylar sulolasining taniqli shaxslari dafn qilingan. Uning qabri me'morchilikda dunyodagi eng yaxshi nekropolsifatida tavsiflangan. Samarqandda umuman yashamagan bo'lsa-da, shahid bo'lib o'rnashgan bu yurtda insonlarning qalbidan joy olgan. Qusam bin Abbos (r.a.) va boshqa muhojir sahobalarning Qur'onga, sunnatga, Payg'ambarimiz (s.a.v.)-ga, to'rt xalifaga bog'liqliklari mintaqada musulmon davlatlarning va Islom madaniyatining ildiz otishi, muvaffaqiyati va yoyilishida katta ta'sir ko'rsatdi [Shulul 167]. Bu ta'sir asrlardan beri hanuzgacha davom etib kelmoqda. Xuroson, Movarounnahrning ta'siri Hindiston, Kavkaz, Bolqon, Onado'li, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikaga yetib qadar borgan. Bu mintaqada tashkil topgan va bu yerdan oziqlangan qoraxoniylar, g'aznaviylar, somoniylar, buyuk saljuqiylar, xorazmshohlar, temuriylar, boburiylar, mamluklar, Onado'li saljuqiylari, usmoniylar kabi musulmon-turk davlatlari tarix yozganlar. Tafsir, hadis, fiqh, kalom, tasavvuf kabi islomiy ilmlarda ulug' olimlar yetishib, asarlar qoldirgan, maktablar tuzganlar. Yana astronomiya, matematika, til, adabiyot, falsafa, tarixnavislik kabi ijtimoiy fanlarga oid tarixga oltin harflar bilan bitilgan allomalar va asarlar Islom madaniyatining bu mintaqadan insoniyatga tuhfasini bo'ldi [Ataman 2020, 2975]. Qusam bin Abbos (r.a.)ning va Islom fothihlarining samimiyatlari, g'ayratlari samara berib gullab yashnadi.

**Abu Ayyub Xolid bin Zayd bin Kulayb al-Ansoriy (r.a.)  
(vaf. h. 49/m. 669)**

Abu Ayyub al-Ansoriy (r.a.) ansorlar orasida ilk musulmon

bo'lganlardandir [Ensari Kara, 49]. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) bilan u zotning bobosi Abdulmuttalibning onasi tomonidan qarindoshdirlar. Hazrati Payg'ambar (s.a.s.) Madinaga kelganlarida tuyalari uning uyi oldida to'xtagan edi. Ayyub al Ansoriy payg'ambarimizni yetti oy uyida mehmon qilgani uchun "Mehmondori Rasululloh" sifatida tilga olingan. Bu uy Islomdan ta'lim berilgan muqaddas bir dargoh bo'lgan. Ayyub al Ansoriy – Makkaning fathida, Badr, Uhud va boshqa barcha g'azotlarda Payg'ambarimizning yonlarida ishtirok etgan. Janglarda Payg'ambarimiz (s.a.v.)ga zarar kelmasin deya doimo yonlarida turar, hatto tunlari chodirlarining atrofida qo'riqchilik qilardi. Vahiy kotibi, hadis roviysi bo'lgan, fatvo ham bergan. Vahiy kotibi bo'lgani uchun Qur'oni karim oyatlarining jamlanishida xizmat ko'rsatgan. Madinada voliylik, Masjidi Nabaviyda esa imomlik qilgan hofiz, olim va orif bir zot bo'lgan. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) u zotni Mus'ab bin Umayr (r.a.) bilan oxirat birodari qilib qo'yganlar. Abu Ayyub al Ansoriy nohaqliklarga chidolmaydigan, to'g'ri deb bilganini aytadigan bir xarakterga ega edi. Nihoyatda jo'mard bo'lib, shirin tili, tabassumli chehrasi, Qur'on qiroati bilan Madinada ko'pchilikning musulmon bo'lishiga sababchi bo'lgan. Hazrati Umar (r.a.) davridagi barcha g'azotlarga ishtirok etib, umri janglarda o'tgan. Sog'lig'i joyida bo'lgan har bir kishi Alloh yo'lidagi urushga qatnashishi kerak, deb hisoblardi. Keksaygan paytida ham har yili bir safarda ishtirok etishga g'ayrat qilardi. Misr, Suriya, Falastin, Qibris yurishlariga qatnashgan, oxirgi g'azoti Istanbul qamali bo'lgan [Coşan 2017, 65]. Olim, amir sifatida taniqli bo'lganiga qaramay, hamma qatori oddiy navkar bo'lib g'azotlarda qatnashgan. Rasululloh (s.a.v.)dan Istanbul fathida sahobalardan birining shahid bo'lishini eshitib, bu xushxabarga noil bo'lish uchun Istanbul fathida ishtirok etadi. Qamal paytida xastalanib, vafot etsa o'sha yerga dafn qilinishini vasiyat qiladi. Vafotidan so'ng Yazid bin Muoviya uning janozasini o'qib, qal'a yaqiniga dafn qildiradi [Algül 2021]. Ba'zi tarixchilarga ko'ra, Ayyub al Ansoriy avvalgi Istanbul safarlarida ham qatnashgan. Qamal tugagach, Vizantiya imperatori uning qabrini vayron qilishini aytganida, Islom qo'shinining qo'mondoni unga javoban, agar shunday qilsa musulmon hududlaridagi cherkov, monastir va nasroniylarning ham zarar ko'rishini yetkazadi. Shundan so'ng qabrni himoyasi kafolatlanib, keyinchalik atrofi devor bilan o'ralgan va bu vaqt mobaynida qabriga umuman tegilmagan. Hatto qabri nasroniylarning ocharchilik davrlarida ziyoratgoh joyi bo'lgan. Istanbul egallangach, Oqshamsiddin hazratlari

tomonidan qabri kashf etiladi. Ba'zi mualliflarga ko'ra, qabrning topilishi shaharni fathi qadar mo'jizaviy va muhim ahamiyatga ega edi. Yillar o'tishi bilan atrofi tekislanib ketgan qabrning atrofi keyinchalik yana o'rab qo'yilgan. Fotih Sulton Muhammadxon Abu Ayyub al Ansoriy "shaharni muhofaza qiluvchi valiy" deb talqin qilingan [Inalcik, 2004, 310]. Usmonli podshohlarining qilich taqish marosimlari shayxulislom va boshqa taniqli kishilarning ishtiroki bilan Ayyub Ansoriyning maqbarasi oldida o'tkazilgan.

Hadisi sharifda Istanbul fath etilishining bashorat qilinishi, bu xushxabarga noil bo'lishni istagan sahobalar va ularning yetakchilaridan Abu Ayyub al Ansoriy (r.a.) to'qson yosh bo'lishiga qaramay bu g'azot qatnashishi, Istanbul qal'asining atrofiga dafn etilishni vasiyat qilishi e'tiborga molikdir.

Uch qit'aga ochilib, yangi bir davrning boshlang'ichi hisoblangan fath – Ayyub al Ansoriyning siymosi bilan bezanib, usmoniyalar bilan birga asrlar davomida Islom bayrog'ining uch qit'ada hilpirashini ta'minladi. Shuning uchun Ayyub al Ansoriy g'arbda bayroqlashgan bir sahoba siymosi hisoblanadi. Usmonli hukmdorligi islomiy qoidalarni tizimlashtirgan bir davlat bo'lgani bois, sahobalarning "Allohning dinini yoyish" g'oyasini asrlar davomida tashigan.

### **Samarqand shahri va ahamiyati**

O'zbekiston hududida joylashgan Samarqand shahri tarixda ko'plab davlatlarning poytaxti bo'lgan. Geostrategik va geosiyosiy ahamiyatga ega bo'lgan shahar ilm-fan, madaniyat va san'at markazi bo'lib, savdo-sotiqda ham chorraha nuqtasida bo'lgan [Alyilmaz 2002, 308].

Qusam bin Abbos (r.a.) shahid bo'lgan Samarqand qamalidan olti yil o'tib, ummaviylarning Xuroson voliyisi Qutayba bin Muslim (r.a.) tomonidan shahar fath qilinadi [Akyürek, 97]. Samarqand Movarunnahrning boshqa mintaqalariga qilingan fath harakatlarida bir qarorgoh vaziyatida bo'lgan. Umar bin Abdulazizning ummaviy sultoni bo'lgani bois hamda tablig' hay'atlarining ta'sirida mintaqada Islomni qabul qilganlarning soni ortib borgan. Samarqand nafaqat Xitoy, Eron, Turk o'lkalari balki o'rta asr Ovruposining Sharq va G'arb savdo karvon yo'li chorrahasida joylashgan bo'lib, dunyoning har o'lkasidan savdogarlar keladigan joy edi. Shu bois O'rta Osiyo savdo yo'llarining markaziy porti deb ta'riflangan [Aydinli 2001, 321]. Somoniylar davrida poytaxt bo'lib, ko'plab olimlar yetishtirgan. Ipak yo'li savdosi samarqandlik savdogarlarning qo'liga o'tgan. Qog'oz

eng muhim mahsulotlardan bo'lib, Islom jug'rofiyasining eng sifatli qog'ozi Samarqandda ishlab chiqarilgan. Bundan tashqari shahar to'qimachilikda ham rivojlangan bo'lib, 150 tur hunarmandchilik tarmog'i mavjud edi [Vurgun 2016, 151]. Najmiddin Nasafiy "Ulamoyi Samarqandiy" asarida shaharda yetishib chiqqan mingga yaqin Islom ulamosini sanab o'tgan. Imom Motrudiy, Dorimiy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Ibn Arabshoh kabi ko'plab olimlar Samarqandda yashaganlar. Temuriylar davrida yashagan Xoja Ubaydulloh Ahror (r.a.) hukumat bilan birga amalga oshirgan faoliyatlari orqali Samarqandni ancha rivojlantirgan. Alisher Navoiyga ko'ra faqat Movarounnahrda emas, Xuroson, Hindiston, Misr, Iroq, Ozarbayjon, Xitoy va Onado'lidagi sultonlar-u amirlarga ham Xoja Ubaydullohning maktublari kuchli ta'sir ko'rsatgan bo'lib, uning tavsiyalarini bajarishgan, hukmiga e'tiroz bildirishmagan [Demir 2016, 654].

Turli davrlarda qoraxoniylar, buyuk saljuqiylar, xorazmshohlarning hukmronligi ostida bo'lgan Samarqand, Mo'g'ullarning bosqiniga, ishg'oliga, vayronagarchiligiga duchor bo'ladi. Samarqand yer bilan yakson qilindi. Salkam bir asr davom etgan bu achinarli vaziyat Amir Temur Movarounnahrda hukmronlik o'rnatib, Samarqandni poytaxt qilgach o'zgaradi [Koçak 2019, 2019, 69]. Temur ko'plab olimlarni, hunarmandlarni, ustalarni Samarqandga yig'adi. U poytaxtni dunyoning eng muhim shahriga aylantirmoqchi bo'lib, boshqa o'lkalardan ko'plab olim, usta, me'mor, hunarmand va allomalarni keltirib, ijtimoiy tuzilmani o'zgartiradi. Buning natijasida Samarqand yulduz shaharga aylandi. Samarqand va Buxoro Movarounnahrda "egizak (qo'sh) gavhar shahar", "Islom gumbazi", "dunyodagi jannatlarning eng yetakchisi" va "Islom olamining yorqin yulduzi" sifatida ta'riflangan [Kurt 2000, 426].

Samarqand turli dindagi, har xil tildagi va turli etnik millatlarni o'zida jamlagan shahar bo'lib, asosiy qismi sug'dlardan iborat edi. Keyin turklar, arablar, forslar boshqa din va millatlarga mansub insonlar istiqomat qilar edi. Buddizm, zardushtiylik, monixizm, nasroniylik, yahudiylik, shomonizm, majusiylik va mazdakiyya kabi e'tiqodlarni qamragan ko'p madaniyatli shahar bo'lgan. Tojik, o'zbek, qirg'iz, arab, afg'on, turkman va eronliklar birgalikda yashashgan [Vurgun, 148]. Shahar xalqi ahli sunnat bo'lib, nazokatli, rahm-shafqatli, bag'rikeng va himmatli bo'lgan. Jamiyat tomonidan ilm-fanga katta ahamiyat berilar, madaniyatli-ma'rifatli kishilarga hurmat ko'rsatilar edi. Shaharga hanafiy va shofe'iyalar chuqur ta'lim olishlari uchun madrasalar barpo qilingan.

Samarqand juda chiroyli shahar bo'lgan. Temuriylar davrida savdo-sotiq va dehqonchilik ancha rivojlangan edi. Hatto, sharq va g'arbdan kelgan sayyohlar shahar va aholisidan ta'sirlanganlarini yozganlar. Har qanday taraqqiyotga ochiq, ilm-fan, san'at, me'morchilik, madaniyat, savdo va siyosatda faolligi bilan ko'plab jamiyat va davlatlarga ta'sir ko'rsatgan.

Samarqandda Islom dini bevosita sahoba va tobe'indan o'rganilgani bois, Qur'on va sunnatga asoslangan diniy hayotning rivojlanishiga va mustahkam asoslar ustida ildiz otishiga sabab bo'ldi. Xitoy, Hindiston, Xuroson, Eron, Iroq, Onado'li, Kavkaz, Yaqin Sharq kabi o'lkalarga borgan darvesh-u so'fiylar ilm va savdo yo'li orqali Islom va tasavvufiy qarashlarni yetkazdilar. Buyuk ipak yo'li – Islomni yetkazish yo'liga aylandi. Samarqandda yetishgan musulmon olimlar va savdogarlar Xitoy saroylariga, Hindistonning ko'plab viloyatlariga Islomiyatni yetkazdilar. Xitoy imperatori Islomga qiziqqanida Qutayba bin Muslim davrida unga bir hay'at jo'natilgan, shu alfozda Islomiyat Xitoygacha yetib borgan [Akyürek, 102].

Islom dunyoga keng yoyilgan paytda va mo'g'ullar bosqinidan keyingi davrda Samarqand ikkinchi marotaba mashhur, markaziy shaharga aylangan. Davlatlar va madaniyatlar katta shaharlarda barpo qilinadi. Shaharning tarixi, geografiyasi, ijtimoiy tuzilishi, joylashuvi – o'troq davlat va madaniyatning rivojlani-shida, o'sishida katta rol o'ynagan.

### **Istanbul shahri va ahamiyati**

Istanbul o'zining geografik joylashuvi jihatidan quruqlik va dengizlarni bir-biriga bog'lovchi, Osiyo, Ovrupa, Bolqon va Onado'li o'rtasidagi aloqani, Qoradengiz va O'rta yer dengizi madaniy mintaqasini bir-biriga bog'lab turuvchi joydir. Vizantiyaning poytaxti bo'lgan Istanbul, o'rta asrning eng yirik, ko'rkam shahri edi. Sharqiy Rim imperiyasining poytaxti bo'lish bilan bir qatorda, milodiy 325 yil Iznik kengashidan keyin Istanbulning mavqeyi oshgach, Vizantiya imperial bir davlatga aylanadi. U ayni paytda Yaqin Sharq mintaqasida ham faol edi.

Islomiyat qaror topgach, musulmonlar Vizantiya qo'shinlari bilan yuzma-yuz keladilar. Istanbul o'sha paytda kufurning markazi edi [Coşan 2020, 36]. Shu bois hazrati Muhammad (s.a.v.)ning ishoratlari bilan musulmonlar u yerni fath etishni maqsad qilganlar. Makkaning fathi Qur'oni karimda, Istanbulning fathi esa hadisi sharifda mujdalangan: *“Qustantiniya (Konstantinopol – Istanbul)*

*albatta, fath qilinajak. U yerning fotihi qanday ham yaxshi boshliq. Uning qo'shini qanday ham yaxshi qo'shindir"* [Kulat, 13]. Abdulloh bin Bishr: "Maslama bin Abdimalik (120-121/738) meni chaqirdi va mendan bu hadisni so'radi. Men unga aytib berdim. U o'sha yili Konstantinopolni fath qilish uchun yo'lga chiqdi".

Ummaviylar davrida besh yil mobaynida Istanbul bir necha marotaba qurshovga olingan [Kara, 29]. Jami yigirma sakkiz marta qamal qilingan. Bu davrda Istanbulda Vizantiya hukmdorligining fitnalari, saroy o'yinlari va g'alayonlari avjiga chiqqan edi. Asrlar davomida usmonli hukmdorligining doimo kun tartibida turgan Istanbul 1453-yil, yosh bo'lishiga qaramay mukammal yetishgan qo'mondon Fotih Sulton Muhammad va qo'shini tomonidan muvaffaqiyat bilan fath etiladi. Hadisi sharif tajalli qilib, Fotih Sulton va askarlari bu xushxabarga noil bo'lishadi. Istanbul fathi tarixning eng muhim voqealaridan hisoblanib, eski davr yopilib, yangi bir davr – tarix ochiladi. Qora dengiz, O'rta yer dengizi, Sharq, G'arb, Osiyo, Ovrupa, shimol va janubning o'lchovi, muvozanati o'zgargan edi.

Bu fath Islom olamida katta bir shodlikka, nasroniy olamida esa qayg'u va qo'rquvga sabab bo'ladi. Sulton Fotih tadbir etib etnik va diniy unsurlarga qo'llanilgan huquqiy tizim natijasida yangi davrning eshigi ochiladi. Istanbul tarixning oqimini o'zgartirgan edi.

Istanbul sahobalarning g'ayratli qadamlari bilan qurshovga olingan hamda musulmon-arab qo'shinlari tomonidan ham bir necha marta qamalga olingan va nihoyat, u yerni fath etish musulmon turk qo'shinlariga nasib qilgan [Coşan, 28]. Bu fath va zafar hikmatlarga to'ladir. Istanbulni qo'lga kiritish faqatgina harbiy emas, balki bir madaniyat va tizimning zafaridir [Genç 1996, 98]. Bu fathdan keyin usmonlilar saltanati nihoyatda rivojlanib, hududlari uch qit'aga kengayib, Qora dengiz va O'rta yer dengiziga chiqish yo'llari ochilgan edi. Ovrupa Istanbul tomonidan berilgan qaror va qadamlarni kuzatib borgan, chunki u yer dunyo siyosatining eng muhim poytaxti darajasiga kelgan. Strategik joylashuvi jihatidan ham asrlar davomida o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Bugungi kunda Istanbul dunyodagi sakson beshta mustaqil o'lkaga bevosita va bilvosita ta'sir qiladigan bir poytaxtdir. Musulmon, nasroniy va yahudiylar birgalikda yashaydigan yirik bir shahardir. Fotih Sulton Muhammadxon tomonidan shaharga "Islom mo'l-ko'l bo'lgan joy" ma'nosidagi "Islombo'l" nomi berilgan [İnalçık 2021].

Istanbul turli madaniyatlar birga yashaydigan shaharning yaqin tarixda va dunyoda eng muvaffaqiyatli namunasi.

O'zining geografik go'zalligi, tarixiy boylklari va ko'p madaniyatligi bilan hanuzgacha dunyoning eng go'zal, muhim shahri hisoblanadi. Istanbul muhim va strategik bir mavqyeda ekan hazrati Payg'ambarning ishorati, sahobalar va boshqa Islom qo'shinlarining safarlari, Ayyub al Ansoriy kabi yetakchi sahobaning vafoti, qal'aning atrofiga dafn qilinishi, xuddi bayroq o'rnatgandek yirik bir shahar o'laroq tarixda o'rin olgan.

Usmonli davlatining qalbiga aylangan bu shahar – nafaqat Islomga, balki butun insoniyatga manfaat va foyda kasb etgan. Zero, musulmonlar Vizantiya imperiyasining zulmi ostida qolgan mahalliy aholini asoratdan qutqarib, kufr va istibdod markazi bo'lgan Konstantinopolga yangi hayot olib kirishgan. Turli e'tiqodlarda bo'lishiga qaramay, mahalliy aholining birlik-barobarlik va tenglikda yashashni, nafaqat, Vizantiya, balki Bolqonlar, O'rta Sharq, Afrika va Ovrupaga o'rgatib, Istanbulni kuchli bir shaharga aylantirgan.

Madaniyatlar shaharlarda barpo etilgani inobatga olinadigan bo'lsa, musulmon-turk madaniyatining rivojlanishida Istanbulning katta ta'siri bo'lgan. Har davrda bo'lgan ming bir hiyla-nayrang, urush, bosqinchilik va boshqa sabablarga qaramay, shahar musulmonlarning qo'lida bo'lib kelgan. Xullas, Istanbul - Abu Ayyub al Ansoriy (r.a.) va boshqa sahobalarning qadamlari va shahodatlar bilan tarixda chuqur iz qoldirgan.

### **Xulosa**

Bu ikki ulug' sahoba va ular shahid bo'lgan bu ikki shahar tarixdagi o'rni, ta'siri jihatidan e'tiborni jalb qiladi. Qusam bin Abbos (r.a.) muhojirlardan, Ayyub al Ansoriy (r.a.) esa ansorlardan edi. Islom dini muhojir va ansor qardoshligi orqali rivojlanib, keng tarqab, o'rnashib ildiz otdi. Bu birodarlik Islom yetib borgan barcha o'lkalarga o'rnak bo'lib, birgalikda, hamjihatlikda yashash qoidasi yuzaga keldi. Islomni yetkazuvchilar va uni qabul qiluvchilar o'rtasida muhojir-ansor muvozanati, birodarligi hamma joyda o'rnatildi. Bu ikki sahoba hazrati Payg'ambar (s.a.v.) va ahli baytiga yaqin bo'lib, u zotga ergashganlar, duolariga mazhar bo'lganlar, hokimlik va amirlik kabi boshqaruv vazifalarini o'taganlar. Qur'on, hadis va fiqh ilmidan xabardor, fatvo beradigan ilmiy salohiyatga ega kishilar bo'lganlar. Ular keksayganlariga qaramay g'azotlarga sulton, qo'mondon sifatida emas, oddiy askar bo'lib ishtirok etganlar. Ular orzu qilgan shaharning fath etilishini ko'rolmay, qamal paytida shahid bo'lib, shahar qal'asi ostida dafn etilganlar. Natijada shaharlarning tarixiy oqimini o'zgartirib yuborganlar. Alloh ularga

shu diyorlarning fathini va Islomga xizmat qilishni nasib etdi. Xaritadan qaraganda sahobaning biri sharqda – Samarqandda, narigisi esa g'arbda – Istanbulda bo'lib, ramziy tus olgan.

Bu sahobalar Payg'ambarimizga sadoqatlari bois g'azotlarda ishtirok etishgan. Ularning yagona maqsadi – Allohning dinini yoyish, yaxshilikka buyurish, yomonlikdan qaytarish bo'lgan [Güler, 14]. Ular saltanat, mol-mulk, maqom-martaba ortidan chopmaganlar. Ular oxir-oqibat tuproqqa aylanib ketishlarini yaxshi bilishar, ko'zlangan shaharlarning fath etilib etilmasligini ham aniq bilishmas edi. Balki, hikmati ham shundadir. Alloh taolo roziligi uchun beg'araz qilingan sa'y-harakatlar urug'ga aylanib, ular yotgan tuproqlar yashnab ko'karib, Islomning eng muhim markaziy shaharlari va mintaqalariga aylangan.

Bu ikki sahoba o'rnak shaxsiyatli, boy tajribaga ega va o'zini irshodga bag'ishlagan kishilar bo'lishgan. O'tmishlari pok, toza bo'lgani uchun jamiyatdagi ta'sirlari ziyoda bo'lgan. Atrofidagilarning hurmat-ehtimomiga sazovor bo'lganlar. Zero, tablig' ahlining toza bir o'tmishga ega bo'lishlari Qur'oni karimda ham ta'kidlangan [Güler 2006, 14].

Bu ikki sahoba taqvodor, jo'mard, fidokor, jasur, odob-axloqli, komil, Haqni gapiruvchi, nohaqlikka qarshi kurashda payg'ambarlarga izdosh bo'lganlar. Zero, barcha musulmonlar shu sifatlar bilan bezanishi kerak [Sönmez, 289].

Istanbul fath qilinishi jarayonida naqshbandiy tariqatining ahroriya tarmog'i asoschisi Xoja Ubaydulloh Ahror (r.a.) hazratlari Samarqanddan turib ma'naviy yordam ko'rsatgani uchun Fotih Sulton Muhammadxon u zotga hadyalar jo'natgani tarixda qayd qilingan. Fathdan avval ham Ubaydulloh Ahror hazratlarining xalifalari usmonlilar nazdida ta'sirga ega edilar [Koç 2005, 216]. Samarqand va Istanbul orasida e'tiborni jalb qilgan muhim, ajoyib, hikmatli bir aloqaning borligini kuzatish mumkin.

Boshqa bir muhim nuqta shundaki, bu ikki sahoba turkiy davlatlarning Islomga xizmat qilishlariga vasila bo'lganlar. Ular hurmatga sazovor, o'rnak bo'ladigan, ideal shaxsiyatlar sifatida turkiylarning qalbidan joy olganlar. Qusam bin Abbos (r.a.) turkiylarning Islomni qabul qilishlarida yetakchilik qilgan sahoba qo'shinlarining ilg'orlaridan edi.

Ayyub al Ansoriy (r.a.) esa turklar musulmon sifatida asos solgan, rivojlanib, taraqqiy topib, uzoq muddat davom etgan usmonli davlatining poytaxtidan joy olgan yetakchi sahoba edi.

Bu ikki shahar biri Sharqda, biri G'arbda ilm, irfon, siyosat,

madaniyat markazi edi. Mo'g'ullar Samarqandni ishg'ol qilgan davrni hisobga olmaganda, bu shaharlar doimo Islom diyori bo'lib kelgan. Mo'g'ullar ham keyinchalik musulmon bo'lganlar. Samarqand va Istanbul musulmon jamiyat va davlatlarning o'sishida, Islom madaniyatining rivojlanishida asosiy markazda bo'lgan.

Bu sahobalar yotgan mazkur ikki shahar Islom olami va insoniyat uchun ulug' bir meros hisoblanadi. Globallashuv asrining musulmonlariga ulug' sahobalardan qolgan bir meros, muhim bir vazifa, ibratli bir hayot yo'li bor: Allohning nomini yoyish, yer yuzini mehr-muhabbat bilan isloh aylab, zulm, fisq-u fasodni yo'q qilish, ilohiy haqiqatlarni dunyoning har bir burchagiga yetkazish, bu yo'lda g'ayrat bilan harakat qilishdir.

### **Adabiyotlar**

- Açar, Cafer. 2017. "Dört Halife Dönemi Fetihlerinin Arka Planına Dair Bazı Mülahazaları". *İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi* 6(3): 2038-2057.
- Akgün, Hüseyin. 2013. "Sahâbe Coğrafyasının Oluşumu ve Sonuçları". *İslâm Medeniyetinin Kurucu Nesli Sahâbe-Sahâbe Kimliği ve Algısı-Tartışmalı İlmi Toplantı* 27/28: 1-28.
- Akyürek, Yunus. 2013. "Emevîler Dönemi Fetih Politikası ve Mâverâünnehir'in Fethi". *Uludağ Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi* 22(1): 85-106.
- Algül, Hüseyin. "Ebû Eyyûb El-Ensârî", *TDV İslâm Ansiklopedisi*, <https://islamansiklopedisi.org.tr/ebu-eyyub-el-ensari> (17.06.2021).
- Alyılmaz, Cengiz."Eski Türk Şehirleri ve Semerkant". A. Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi c/20 (2002), 308.
- Ataman, Kemal Yavuz. 2020. *Maveraünnehir'de İslam Medeniyeti Üzerine Küresel Bir Analiz. İnsan ve Toplum Bilimleri Dergisi* 9(3): 2962-2977.
- Aydınlı, Osman. 2001. *Fethinden Samanilerin yıkılışına kadar Semerkant tarihi*. İstanbul: Marmara Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Yayınlanmamış doktora tezi.
- Azimli, Mehmet. 2005. "Hulefâ-İ Râşidîn Döneminde Gerçekleşen İlk Fetihlerin Sebepleri Üzerine Bazı Değerlendirmeler". *İstem* 3(6): 177 - 193.
- Coşan, Mahmud Es'ad. "Hz. Peygamber (s.a.v.)'in Özellikleri". *İskenderpaşa*. Erişim. 10.06.2021. <http://www.iskenderpasa.com/D0806A49-B171-477E-A588-B7AC75BA3BA6.aspx>
- Coşan, Mahmud Es'ad. 2020. *İstanbul'un Fethi ve Fatih*. İstanbul: Server Yayınları, 7.
- Coşan, Mahmud Es'ad. 2017. *Tarihî ve Tasavvufî Şahsiyetler*. İstanbul: Server Yayınları, 5.
- Demir, Cengiz. 2016. "Baburnâme'de Hoca Ubeydullah Ahrar". *Uluslararası*

*Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi* 5(2): 651–660.

- Ensari Kara, Hatice Fahrunnisa. 2010. “Tarihi İslam’ın Yardımcıları Ensariler ve Kutsal Belde Eyüb’un Sultanı Hz. Halid b. Zeyd Ebu Eyyub el-Ensar”. *Kültürü Sanatıyla Eyup Sultan Sempozyumu, XI, Şehir ve Kutsallık*. ed. İrfan Çalışkan. 28-63. İstanbul: Eyüp Sultan Belediyesi Yayınları.
- Erul, Bünyamin. “Vedâ Hutbesi”, TDV İslâm Ansiklopedisi, <https://islamansiklopedisi.org.tr/veda-hutbesi> (17.06.2021).
- Genç, Mehmet. 1996. “Neden Fetih?”, I. Uluslararası İstanbul’un Fethi Sempozyumu. İstanbul: *İstanbul Büyükşehir Belediyesi Kültür İşleri Daire Başkanlığı Yayınları*, 96–98.
- Güler, Zekeriya. 2006. “Tebliğ’in Mahiyeti ve Sınırları”, *Kutlu Doğum İslam’ın Güncel Sunumu 2003*, Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları 10–16.
- Hasan, Nadirhan. 2013. “Sahabe Kusem Bin Abbas’ın Kabri ve Semerkant Maneviyatının Oluşumu Katkıları”. *Adıyaman Safvan Bin. Muattal ve Ahlak Sempozyumu*, ed. Candemir Dogan Adıyaman: *Bildiriler Kitabı* 15 -16 -17.
- Hatalmış, Ali. 2019. “Sahabîlerin Türkleri Tanımları ve İlişkileri”. *Çukurova Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi* 19(2): 418-440.
- İnalçık, Halil. 2004. *İstanbul: Bir İslam Şehri*. çev. İbrahim KALIN, Marife, 2004.
- İnalçık, Halil “İstanbul”. *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi*. Erişim 10.06.2021.  
<https://islamansiklopedisi.org.tr/istanbul#3-turk-devri>
- Karakuş, Abdulkadir. 2020. “Hz. Peygamber’in Tebliğ Dili ve Bunun Kur’ânî Temelleri”. *Tefsir Araştırmaları Dergisi* 4(2): 267–283.
- Koç, Mustafa. 2005. “16. Yy Osmanlı Coğrafyasında Karanlıkta Kalmış Nakşi-Ahrarî, Yesevi ve Kübrevi Şeyhleri”. *Kutadgubilig Felsefe-Bilim Araştırmaları Dergisi* C/7: 213–254.
- Koçak, Muhammed Emin. 2019. “Timurlu Medeniyetine Örnek Bir Şehir: Semerkant (1370-1405)”. *Ausbd* 2(4): 67–76.
- Kulat, Mehmet Ali. 2001. “İstanbul’un Fethini Müjdeleyen Hadisin Değerlendirilmesi”. *Diyanet Dergisi* 37(2): 5–24.
- Kurt, Hasan. 1999. *Orta Asya’da Peygamber Ailesinden Bir Sahabe Kusem B. Abbas*, Ankara, 565–579.
- Kurt, Hasan. 2000. “Orta Çağ Başarısı Buhara”. *Ankara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi* 41(1): 425–471.
- Küçükaşçı, Mustafa Sabri. “Fetih Hadisi ve Müslümanların İstanbul Kuşatmaları”. *İstanbultarihi. ist*. Erişim 10. 06. 2021. <https://istanbultarihi.ist/54-fetih-hadisi-ve-muslimanlarin-istanbul-kusatmalari>
- Sönmez, Mustafa. 2011. “Peygamberlerin” Tebliğ Sıfatı” ve Bu Sıfatın Arka Planını Oluşturmada Diğer Sıfatların Rolü”. *Elektronik Sosyal Bilimler Dergisi* 10(35): 277-298.
- Şulul, Kasım. 2020. “Horasan ve Mâverâünnehir’le Münasebeti Bulunan

Sahabîler”. *Siyer Arařtırmaları Dergisi* 8: 139–168.

Vurgun, Seda Yılmaz. 2016. “Buhara Emirliđinin İki Önemli Şehri: Buhara ve Semerkand”. *Türk Tarihi Arařtırmaları Dergisi. Journal of Turkish History Researches* 1(1): 148–151.

## **Two Pioneer Companions, Two Important Cities in the Conquest Qutham ibn Abbas & Abu Ayyub al-Ansari, Samarkand & Istanbul**

Dr. Kemal Yavuz Ataman<sup>1</sup>

### **Abstract**

Islam spread via the travels of the Companions and conquest movements. It is noteworthy that the majority of Companions died outside of Arabia. When we look at the past, we can see that important companions took place in the strategic and global conquest movements. Two pioneer exemplary companions, known for their closeness to Prophet (PBUH), participated in the conquest and siege of two cities; this became the focus of the developments which changed the flow of the history.

Qutham ibn Abbas (RA) was the son of Abbas (RA) who was the uncle of Prophet (PBUH); he was very close to our Prophet. He was the hajj emir and the governor of Mecca and for a short time the governor of Medina during the time of Ali (RA) and he was from the immigrants. In the Umayyad period, he participated to Khorasan expedition and he was martyred in the conquest of Samarkand.

Abu Ayyub al-Ansari (RA) hosted Hz. Prophet (PBUH) in his house when He immigrated to Medina and he was also His relative. He participated to all of the expeditions during Hz. Prophet (PBUH) period and he was his bodyguard. He also participated to some expeditions during four caliphs; Hz. Ali (RA) once left him in Medina as deputy. He died in the siege of Istanbul and he was from ansar.

The article examines the shared characteristics of these two Companions, particularly their close association with the Prophet Muhammad (peace be upon him) and the Rightly Guided Caliphs, their

---

<sup>1</sup> *Kemal Yavuz Ataman* – Doctor of Social Sciences, Türkiye.

**E-mail:** kyataman@superonline.com

**ORCID ID:** 0000-0003-1379-0606

**For citation:** Kemal Yavuz Ataman. 2024. “Two Pioneer Companions, Two Important Cities in the Conquest Qutham ibn Abbas & Abu Ayyub al-Ansari, Samarkand & Istanbul”. *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 101 – 119.

services during the period of Hazrat Ali (may Allah be pleased with him), as well as their participation in the military campaigns of conquest during the Umayyad era. Furthermore, the cities of Samarkand and Istanbul are characterized as possessing significant geostrategic and geopolitical features, and are described as cities that played a leading role in global processes of growth and transformation from the perspective of Islamic civilization and Muslim-Turkic states.

**Key words:** *Companion, Conquest, Pioneer, Istanbul, Samarkand, Global, Strategic.*

### References

- Açar, Cafer. 2017. "Dört Halife Dönemi Fetihlerinin Arka Planına Dair Bazı Mülâhazaları". *İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi* 6(3): 2038-2057.
- Akgün, Hüseyin. 2013. "Sahâbe Coğrafyasının Oluşumu ve Sonuçları". *İslâm Medeniyetinin Kurucu Nesli Sahâbe-Sahâbe Kimliği ve Algısı-Tartışmalı İlmi Toplantı* 27/28: 1-28.
- Akyürek, Yunus. 2013. "Emevîler Dönemi Fetih Politikası ve Mâverâünnehir'in Fethi". *Uludağ Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi* 22(1): 85-106.
- Algül, Hüseyin. "Ebû Eyyûb El-Ensârî", *TDV İslâm Ansiklopedisi*, <https://islamansiklopedisi.org.tr/ebu-eyyub-el-ensari> (17.06.2021).
- Alyılmaz, Cengiz."Eski Türk Şehirleri ve Semerkant". A. Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi c/20 (2002), 308.
- Ataman, Kemal Yavuz. 2020. "Maveraünnehir'de İslam Medeniyeti Üzerine Küresel Bir Analiz". *İnsan ve Toplum Bilimleri Dergisi* 9(3): 2962-2977.
- Aydınlı, Osman. 2001. *Fethinden Samanilerin yıkılışına kadar Semerkant tarihi*. İstanbul: Marmara Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Yayımlanmamış doktora tezi.
- Azimli, Mehmet. 2005. "Hulefâ-î Râşidîn Döneminde Gerçekleşen İlk Fetihlerin Sebepleri Üzerine Bazı Değerlendirmeler". *İstem* 3(6): 177 - 193.
- Coşan, Mahmud Es'ad. "Hz. Peygamber (s.a.v.)'in Özellikleri". *İskenderpaşa*. Erişim. 10.06.2021. <http://www.iskenderpasa.com/D0806A49-B171-477E-A588-B7AC75BA3BA6.aspx>
- Coşan, Mahmud Es'ad. 2020. *İstanbul'un Fethi ve Fatih*. İstanbul: Server Yayınları, 7.
- Coşan, Mahmud Es'ad. 2017. *Tarihî ve Tasavvufî Şahsiyetler*. İstanbul: Server Yayınları, 5.
- Demir, Cengiz. 2016. "Baburnâme'de Hoca Ubeydullah Ahrar". *Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi* 5(2): 651-660.
- Ensari Kara, Hatice Fahrurnisa. 2010. "Tarihi İslam'ın Yardımcıları Ensariler ve Kutsal Belde Eyüb'un Sultanı Hz. Halid b. Zeyd Ebu Eyyub el-Ensar". *Kültürü Sanatıyla Eyup Sultan Sempozyumu, XI, Şehir ve Kutsallık*. ed. İrfan Çalışkan. 28-63. İstanbul: Eyüp

Sultan Belediyesi Yayınları.

- Erul, Bünyamin. "Vedâ Hutbesi", TDV İslâm Ansiklopedisi, <https://islamansiklopedisi.org.tr/veda-hutbesi> (17.06.2021).
- Genç, Mehmet. 1996. "Neden Fetih?", I. Uluslararası İstanbul'un Fethi Sempozyumu. İstanbul: *İstanbul Büyükşehir Belediyesi Kültür İşleri Daire Başkanlığı Yayınları*, 96-98.
- Güler, Zekeriya. 2006. "Tebliğin Mahiyeti ve Sınırları", *Kutlu Doğum İslam'ın Güncel Sunumu 2003*, Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları 10-16.
- Hasan, Nadirhan. 2013. "Sahabe Kusem Bin Abbas'ın Kabri ve Semerkant Maneviyatının Oluşumu Katkıları". *Adıyaman Safvan Bin. Muattal ve Ahlak Sempozyumu*, ed. Candemir Dogan Adıyaman: *Bildiriler Kitabı* 15 -16 -17.
- Hatalmış, Ali. 2019. "Sahabîlerin Türkleri Tanımaları ve İlişkileri". *Çukurova Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi* 19(2): 418-440.
- İnalçık, Halil. 2004. *İstanbul: Bir İslam Şehri*. çev. İbrahim KALIN, Marife, 2004.
- İnalçık, Halil "İstanbul". *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi*. Erişim 10.06.2021.  
<https://islamansiklopedisi.org.tr/istanbul#3-turk-devri>
- Karakuş, Abdulkadir. 2020. "Hz. Peygamber'in Tebliğ Dili ve Bunun Kur'ânî Temelleri". *Tefsir Araştırmaları Dergisi* 4(2): 267-283.
- Koç, Mustafa. 2005. "16. Yy Osmanlı Coğrafyasında Karanlıkta Kalmış Nakşi-Ahrarî, Yesevi ve Kübrevi Şeyhleri". *Kutadgubilig Felsefe-Bilim Araştırmaları Dergisi* C/7: 213-254.
- Koçak, Muhammed Emin. 2019. "Timurlu Medeniyetine Örnek Bir Şehir: Semerkant (1370-1405)". *Ausbd* 2(4): 67-76.
- Kulat, Mehmet Ali. 2001. "İstanbul'un Fethini Müjdeleyen Hadisin Değerlendirilmesi". *Diyanet Dergisi* 37(2): 5-24.
- Kurt, Hasan. 1999. *Orta Asya'da Peygamber Ailesinden Bir Sahabe Kusem B. Abbas*, Ankara, 565-579.
- Kurt, Hasan. 2000. "Orta Çağ Başarısı Buhara". *Ankara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi* 41(1): 425-471.
- Küçükkaşçı, Mustafa Sabri. "Fetih Hadisi ve Müslümanların İstanbul Kuşatmaları". *İstanbultarihi.ist*. Erişim 10. 06. 2021. <https://istanbultarihi.ist/54-fetih-hadisi-ve-muslumanlarin-istanbul-kusatmalari>
- Sönmez, Mustafa. 2011. "Peygamberlerin" Tebliğ Sıfatı" ve Bu Sıfatın Arka Planını Oluşturmada Diğer Sıfatların Rolü". *Elektronik Sosyal Bilimler Dergisi* 10(35): 277-298.
- Şulul, Kasım. 2020. "Horasan ve Mâverâünnehir'le Münasebeti Bulunan Sahabîler". *Siyer Araştırmaları Dergisi* 8: 139-168.
- Vurgun, Seda Yılmaz. 2016. "Buhara Emirliğinin İki Önemli Şehri: Buhara ve Semerkand". *Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi. Journal of Turkish History Researches* 1(1): 148-151.